

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

2022-y. «23» 6

2022-368-5-72-XT-son

Qiziltepa sh.

NAVOIY UNIVERSAL BIZNES 2022 Oilaviy korxonasi nomidan (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) Nizom asosida harakat qiluvchi rahbari V.Jabborov bir tomondan Qiziltepa tuman Xalq ta'lim bo'limi nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi) rahbari U.Kamolov ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Sotuvchi o'ziga tegishli tovarni Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa ushbu tovarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.
- 1.2. Tovar haqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1.3 qismidagi № 1 jadvalida ko'rsatilgan.
- 1.3.

№	Tovarning nomi	Ulchov birligi	Miqdori	Narxi	QQS	Summasi
1	Стол компьютерный	Dona	24	1500000	4695652	36000000
2	Этажерка	Dona	4	800000	417391	3200000
3	Мягкая мебель	Dona	1	10500000	1369565	10500000
4	Стол для совещаний	Dona	1	2200000	586956	4500000
5	Стол журнальный	Dona	5	1800000	1173913	9000000
6	Шкаф деревянный для документов	Dona	3	3200000	1252173	9600000
7	Пуфик с деревянным каркасом	Dona	8	500000	521739	4000000
8	Стол демонстрационный	Dona	1	5500000	717391	5500000
9	Стул на металлическом каркасе	Dona	48	500000	3130434	24000000
				Jami:		106 300 000

- 1.4. Tovarning umumiy bahosi **106 300 000** (bir yuz olti million uch yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2. TO'LOV SHARTLARI

- 2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
Shartnoma kuchga kirgandan so'ng 5 (besh) bank kuni ichida Sotib oluvchi Sotuvchiga oldindan 30 % miqdorida pul to'laydi.
- 2.2. Qolgan 70 % miqdoridagi pul mablag'ini tovar qabul qilingandan so'ng 5 (besh) bank kuni ichida Sotuvchiga to'lab beriladi.
- 2.3. To'lov shakli: Pul Sotuvchining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1. Sotuvchining majburiyatlari:
- 3.2. Shartnomaning 2.1 bandi Sotib oluvchi tomonidan bajarilgan sanadan boshlab tovarni 5 (besh) bank kun ichida Sotib oluvchiga topshirishi shart.
- 3.3. Tovarni va unga oid hujjatlarni ushbu shartnoma shartlari asosida Sotib oluvchiga topshirish.
- 3.4. Tovarni shartnoma shartlariga javob beradigan miqdorda va sifatda, tashish jarayonida uning buzilishi, sinishi yoki yo'q bo'lishi mumkinligini istisno qiladigan darajadagi idishlarda va joylashtirilgan holda topshirish.
- 3.5. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- 3.6. Tovarni 3 (uch) kunlik muddatda ko'zdan kechirish. Tovarning mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, Sotib oluvchi shu muddatda Sotuvchiga aniqlangan nomuvofiqliklar haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi xabarnoma (reklamatsiya) yuboradi.
- 3.7. Sotuvchi sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar yuborilganligi haqida xabarnomani olgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida sifati lozim darajada bo'lmagan tovarni sifatligiga almashtirish.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan xollarda, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan kismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar baxosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 4.2. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
- 4.3. Taraflarning javobgarlik holatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi" Qonuni va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha amalga oshiriladi.

5. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanib g'aznachilikda ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.
- 5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar muzokora olib borish yo'li bilan hal etiladi.
- 6.2. Muzokora olib borish yo'li bilan nizo hal qilinmagan taqdirda, nizo Sotib oluvchi joylashgan hududdagi iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

- 7.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq: - har bir tomon, shu jumladan barcha xodimlar, vakillar, shuningdek ular tomonidan jalb qilingan yoki ular nomidan ish olib boradigan boshqa shaxslar, boshqa tomonga, uning xodimlariga, vakillariga, potensial yoki mavjud mijozlarga va har qanday tegishli Hamkorlariga, shuningdek, boshqa tomon tomonidan jalb qilingan yoki uning nomidan ish yuritadigan boshqa shaxslarga ("Ishtirokchi Tomonlar") moddiy/nomoddiy rag'batlantirish, manfaat, taqdirlash, takliflar (shu jumladan, cheklanmagan holda, har qanday to'lov shakli, sovg'alar va boshqa mulkiy imtiyozlar, mukofotlar va manfaat (pul yoki har qanday qiymat ko'rinishida)) bermaslikni ya'ni, moliyaviy mukofot, mulk, mulk huquqini taklif qilmaslikni, bermaslikni kafolatlaydi va shunga majbur.

8. BOSHQA SHARTLAR

- 8.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega deb hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

8.2. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, G'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrga qadar amfl qiladi.

9. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

Sotuvchi:

Sotib oluvchi:

**NAVOIY UNIVERSAL BIZNES 2022 Oilaviy
korxonasi**

Yuridik manzil: Qiziltepa tuman Zarmitan MFY
Hisob-kitob raqami: 20208000205496895001.

Bank: Mikrokreditbank,
bank kodi: MFO: 00213

STIR: 309319916,

XXTUT _____

KTUT _____

Direktor:  V/Jabborova



Qiziltepa tuman Xalq ta'lim bo'limi

Yuridik manzil: Qiziltepa shaxri

Hisob-kitob raqami:

401722860122167092100075007

O'z Res XKKM Markaziy bank


bank kodi: MFO: 00014

STIR: 200017201,

XXTUT _____

KTUT 92310

Boshliq:  U.Kamolov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi:
Shartnoma.
2. Loyihaning nomi:
Oldi-sotdi shartnomasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:
Qiziltepa tuman Xalq ta'lim bo'limi. 2022.21.06

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Qiziltepa tuman Xalq ta'lim bo'limi va NAVOIY UNVERSAL BIZNES 2022 Oilaviy korxonasi o'rtasida tuzilgan **106 300 000** so'mlik Ofis mebel jihozlari oldi-sotdisi bo'yicha shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



M.Ro'ziyev
2022.23.06



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 23.06.2022 г. № 2022-368-5-72-ХТ

между Навоий универсал бизнес 2022 ок и Қизилтепа туман ХТБ на общую сумму 106300000,00

Глава _____ 075
Казначейский лицевой счёт _____ 401722860122167092100075007

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4354910			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь	106 300 000,00			106 300 000,00
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	106 300 000,00			106 300 000,00

Всего 106300000,00 сум

Сто шесть миллионов триста тысяч сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 31890000,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в _____ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Камолов Уйгун Тулкинович
Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Латипов Фаррух Фахриддинович
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _____

(подпись)

Получил работник заказчика _____

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

«__» _____ 20__ г.